



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№3 (789), 2025-yil 15-fevral

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga

DAHO SHOIRGA YUKSAK EHTIROM



Alisher Navoiy jahon adabiyotining Nizomiy va Firdavsiy, Gomer va Shekspir, Jomiy va Rustaveli kabi namoyandalari safida turadigan daho shoir, benazir iste'dod sohibi va shuning barobarida ulkan davlat arbobi hamda ulug' mutafakkirki, bundan nafaqat o'zbek xalqi, balki butun turkiy dunyo vakillari har qancha faxrlansa, iftixor qilsa arziydi. Zero, buyuk alloma yaratgan bebaho adabiy-badiiy meros ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlarga mavzu bo'ladi. Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi respublikamiz va undan tashqarida ham ma'naviy bayrami sifatida keng nishonlanganligi bejizga emas.

Darvoqe, buyuk shoir va mutafakkir tavalludining qutlug' sanasi munosabati bilan 8-9-fevral kunlari Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy va Sharq Rennessansi" IV an'anaviy xalqaro simpoziumi o'tkazildi. Simpoziumda AQSh, Belgiya, Vengriya, Pokiston, Rossiya, Eron, Misr, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa davlatlari, shuningdek respublikamizning turli burchaklaridan tashrif buyurgan navoiyshunos olimlar, madaniyat va san'at namoyandalari, oliy o'quv yurtlarining professorlari ishtirok etdilar.

Simpoziumning Navoiy shahridagi Ma'naviyat va ma'rifat maskanida o'tkazilgan yalpi majlisi ochilish tantanasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi Xayriddin Sultonov muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning simpozium ishtirokchilariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. Anjumanda viloyat hokimi Normat Tursunov nutq so'zlad.

Anjumanda Navoiy ijodini o'rganishdagi xizmatlari uchun Anqara shahridagi Boshkent universiteti professori, Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar amaliy markazi direktori Abdurrahman Guzel va AQShning Prinston universiteti professori Said Rizo Husayniga "Navoiy shahrining faxriy fuqarosi" unvoni topshirildi. Ulug' shoir ijodining qator tadqiqotchilari tashkilotchilar tomonidan ko'krak nishonlari bilan taqdirlandilar.

Anjuman doirasida Navoiy davlat universitetida Alisher Navoiy siymosi va ijodiga bag'ishlangan ko'rgazma ham tashkil etildi. Navbahor, Nurota va Karmana tumanidagi Madaniyat markazlarida adabiy kechalar tashkillashtirildi. Kunning ikkinchi yarmida oliy o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalarida tanikli olimlar va ijodkorlar ishtirokida navoiyxonlik tadbirlari uyushtirildi. Simpozium doirasida Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari Farhod Boqiyev boshchiligidagi olimlar, shoir va yozuvchilar, fan arboblari, ta'lim muassasalari, ijod maktablari rahbar va o'qituvchilari ishtirokida Navoiy shahridagi 22-umumta'lim maktabida "Navoiy va uning ma'naviy merosi" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Oliy o'quv yurtlarining yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlar ishtirokida respublika oliy o'quv yurtlarida Alisher Navoiy ijodini o'qitishni yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-amaliy seminar, Navoiy davlat universitetida simpoziumning sho'ba yig'ilishlari o'tkazildi.

Xalqaro simpozium ishtirokchilarining fikr-mulohazalariga e'tibor bering:

Derya Soysal (Belgiya), tadqiqotchi:

– Men Bryussel erkin universiteti doktoranti sifatida Temuriylar davrini o'rganib kelyapman. Ushbu nufuzli

xalqaro anjumanda ikkinchi Sharq uyg'onish davrining yorqin namoyandasi hisoblangan Alisher Navoiyning turkiy dunyoga ta'siri haqida ilmiy maqolam bilan ishtirok etdim. Tarixchi sifatida ulug' shoirning o'rta asrlar tarixida tutgan o'rni, madaniyatni yuksak cho'qqigacha olib chiqishdagi xizmatlarini o'rganib, lol qolaman. Navoiy shahridagi tadbirlar menga bir olam taassurot qoldirdi.

Azizulloh Orol(AQSh), navoiyshunos olim:

– Hazrat Alisher Navoiyning o'zi bizniki, tili bizniki. Uning mafkuras, tafakkur olami butun jahonniki. Hozirgi kunda Navoiy nafaqat shoir, balki muhandis, iqtisodchi sifatida ham o'rganilmoqda. Navoiy ilgari surgan g'oyalari umrboqiy va ulardagi biz bugun ham foydalanayapmiz.

Men yaqinda ikkita kitob chop ettirdim. Birinchisi Afg'oniston va Eronda istiqomat qiluvchi forsiyazon insonlar uchun "Alisher Navoiy hayoti va ijodiyoti" nomli kitob, ikkinchisi o'zbek tilida "Navoiy bitiklari izidan". Bu kitoblarda O'zbekistonda yashayotganligim va Navoiy ijodiga berilayotgan e'tibor tufayli nashr yuzini ko'rdi, albatta.

Said Rizo Husayni (AQSh), Prinston universiteti professori:

– Hazrat Alisher Navoiyning asarlarini o'rganish, unga amal qilish borasida O'zbekistonda olib borilayotgan ishlar juda yuqori saviyada tashkil etilganligini guvohi bo'lib turibmiz. Afg'onistonda tug'ilgan bo'lsamda, okean orti mamlakatida Navoiy asarlarini targ'ib qilish nasib etyapti.

Abdurrahman GUZEL (Turkiya), Anqara shahridagi Boshkent universiteti professori, Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar amaliy markazi direktori:

– Alisher Navoiy o'n beshinchi asrda turkiy olamni yakka adabiy muhitga birlashtirgan edi. Bugun O'zbekiston Prezidenti butun dunyo navoiyshunosligini yagona manba atrofiga birlashtirdi. Men ushbu xalqaro anjumanning ikkinchi o'tkazilishida ishtirok etib, olgan taassurotlarim samarasi o'laroq universitetimiz rahbarlari oldiga Alisher Navoiy nomidagi tadqiqotlar markazini tashkil etish masalasini ko'rganim edi. Bugun ushbu markazimizda 9 ta shu'ba ish olib bormoqda.

"Farhod" madaniyat saroyidagi "NKMK tarixi" muzeyida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov, O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti Bahrom Abdulhalimov, atoqli adib, "Tafakkur" jurnalining bosh muharriri Erkin A'zam, O'zbekiston xalq shoiri, "Jadid" gazetasi bosh muharriri Iqbol

Mirzo, adabiyotshunos, jurnalist, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Shuhrat Rizayev ishtirokida o'tgan davra suhbatlari "Alisher Navoiy hayoti va ijod yo'li" mavzusida bo'lib, unda ma'naviyatimiz vakillari bobokalonimiz boy merosining ahamiyati hamda uni chuqurroq o'rganishimiz zarurligi haqida fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Ma'lumki, Prezidentimiz joriy yilning 7 fevralida "Buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy ijodiy merosini yurtimiz va jahon miqosida keng targ'ib qilish hamda Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili"ni yuqori darajada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini imzoladi. Mazkur qarorda Respublika Kinematografiya agentligi Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan hamkorlikda Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini to'laqonli, tarixiy voqealik aniq ifodalangan badiiy film yaratishi belgilangan. "NKMK" AJ Boshqaruv raisi Bosh direktori Q.Sanaqulov va Kinematografiya agentligi direktori vazifasini bajaruvchi Sh.Rizayevlarning chiqishlarida muhim qaror ijrosi to'la ta'minlanib, buyuk shoir va mutafakkir hayoti aks ettirilgan badiiy film yaratilishi xususida so'z borki.

9 fevral kuni xalqaro simpozium ishtirokchilari, viloyatimiz markazidagi oliy o'quv yurtlari, korxonalar va tashkilotlar, jamoatchilik vakillari Navoiy shahridagi Alisher Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'yish uchun Hazrat nomi bilan atalgan bog'da to'plandilar. Shoir siymosiga ehtirom ko'rsatish tantanalari marosimini Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi ijrochi direktori, professor Olim Davlatov boshqarib bordi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti direktori, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudov, Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ozarbayjon-Osiyo aloqalari bo'limi mudiri Bedirhan Axmedli Navoiy ijodining jahonshumul ahamiyati xususida gapirdilar. Iste'dodli shoir Usmon Azim o'zining Alisher Navoiyga bag'ishlangan she'ri o'qidi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ilyos Arabov Navoiy g'azaliga bag'ishlangan qo'shiqni ijro etdi. Shundan so'ng musiqa sadolari ostida Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.

Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda "Farhod" madaniyat saroyida davom etdi. "Nazm va navo" deb nomlangan musiqali kechada poytaxtimizdan tashrif buyurgan shoirlarning she'rlari hamda tanikli san'atkorlar, shuningdek viloyatimiz badiiy jamoalarining buyuk shoir g'azallari bilan aytiladigan qo'shiqlari yangradi.

Nizomiddin SADRIDDINOV, Azamat ZARIPOV.

■ Bugunning mavzusi

DAVRIY UZLUKSIZ TEXNOLOGIYA



"Dovg'iztov" konida dizel yoqilmasi, moy mahsulotlarining sarfini qisqartirib, iqtisodiy samaradorlikka olib keladi

Shimoliy kon boshqarmasida so'nggi yillarda ochiq kon ishlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va tog'-kon ishlari jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishida qator ishlar amalga oshirilishi natijasida muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Yutuqlar ortida ahil jamoaning zahmatli mehnati, sahning ekstremal sharoitida toblangan, murakkab vaziyatlarida to'g'ri qaror qabul qila oladigan insonlarning tajribasi va tashabbuskorligi turibdi. Tog'-kon sanoatida doim ham yangilik qilinavermaydi va bu oson ish emas.

"Dovg'iztov" koni 3-gidrometallurgiya zavodining xomashyo bazasi hisoblanadi. Konda burg'lash, portlatish, kon-foydalanish, ma'danni yuklash, elektr ta'minoti, kon texnikalarini ta'mirlash, kon uskunalari montaj qilish, elektr qurilmali kon uskunalari xizmat ko'rsatish uchastkalari va ma'dan nazorat stansiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Sulfidli ma'dan qazib olish va uni gidrometallur-

giya zavodiga yetkazib berish bo'yicha kon ishlari reja asosida olib borilmoqda. Konda 2016-yilda tog' jinslarini qazib chiqarish, ularni tashish masofasini kamaytirish va yoqilg'i mahsulotlarini tejab qolindi. Davriy uzluksiz texnologiya ishga tushirilgan edi. 2023-yilda mazkur majmua magistral konveyeri 1,7 kilometr ga uzaytirildi va og'ir yuk tashuvchi avtoag'dargichlarning dizel yoqilg'isi, moy mahsulotlari, avtoshina va boshqa turdagi tovar-moddiy boyliklarni iqtisod qilish imkoniyati tug'ildi. 2024-yil yakuniga ko'ra 11 milliard so'm mablag' tejab qolindi. Davriy uzluksiz texnologiya bir sutkada 15 ming kubometr kon massasini tashib beradi. "Karning lifti" deyish mumkin bo'lgan ushbu texnologi-

ya orqali kon massasi 60 metr yuqoriga olib chiqilmoqda.

Yaqinda "Dovg'iztov" konida kombinat rahbariyati, mutaxassislar va kon ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari, Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoalari vakillari ishtirokida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan navbatdagi davriy uzluksiz texnologiya majmuasini foydalanishga topshirishga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Uzunligi qariyb ikki kilometr, eni ikki metr bo'lgan davriy oqim texnologiyasining ishga tushirilishi bilan konda texnika vositalari yordamida tog' jinslarini tashish masofasi, yoqilg'i-moylash materiallari xarajati kamayadi. Majmuani qurish-ta'mirlash ishlarida Navoiy mashinasozlik zavodi, Zarafshon qurilish boshqarmasi, Shimoliy kon boshqarmasining kon jihozlarini ta'mirlash va ta'mirlash-mexanika sexlari jamoalari faol ishtirok etishdi.

– Mazkur majmuani barpo etishda 5

ming tonna og'irlikdagi metallkonstruksiyalardan foydalanilganligi davriy oqim texnologiyasi yirik obyekt ekanligini ko'rsatib turibdi, – deydi kon boshqarmasi Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi boshlig'i o'rinbosari Jamshid Xolbekov.

O'tgan yili "Dovg'istov" konidan 38,1 million kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkichni 41,1 million kubometr ga yetkazish rejalashtirilmoqda. Konda ishlab chiqarish quvvati bosqichma-bosqich oshirilishi natijasida keyingi yillarda tog' jinslarini qazib olish hajmi 2,5 barobarga oshdi.

– Konchilik ishlarini bajarishda tog' jinslarini konveyer liniyalarida orqali tashish eng qulay, samarali va tejamkor vosita hisoblanishi tajribadan yaxshi ma'lum. Bu loyihaning ikki oy muddatda qurib foydalanishga topshirilishidan asosiy maqsad ham ana shudir, – deydi kon uchastka boshlig'i Alvoiddin O'blaqulov.

Laylo KARIMOVA, Azamat G'ULOMOV.



"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati "Sustainable Fitch" xalqaro reyting agentligi tomonidan ilk korporativ ESG-reytingi berilganini e'lon qiladi. Kompaniya ESG-reytingini "3" darajasida (1 dan 5 gacha bo'lgan shkalada, bunda 1 – past xavf-xatar darajasi, 5 – yuqori xavf-xatar darajasini anglatadi) va umumiy 51 ball (100 ballidan) bilan oldi.

"NKMK" Ajga ESG-reytingi berildi

ESG-reytingini berish uchun agentlik "NKMK" AJning barqaror rivojlanish strategiyasi va tashabbuslari, kompaniyaning korporativ boshqaruv amaliyotlari hamda uning ijtimoiy va ekologik ta'sirini har tomonlama baholadi.

Ekologik hodisalarning yo'qligi, chiqindilarni boshqarish va suv iste'moli bo'yicha ichki hujjatlarining mavjudligi hamda ish haqidagi gender tafovutining pastligi tufayli "NKMK" AJning ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlari "3" darajasida ijobiy baholandi. Bundan tashqari, ekspertlar tomonidan korporativ boshqaruvning rivojlanishi "2" darajasida yuqori baholandi. Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarning mavjudligi, faoliyatning muntazam ichki audit o'tkazilishi va xavf-xatarni boshqarish kabi kuchli tomonlarni alohida ta'kidlandi.

"Sustainable Fitch" agentligi tomonidan "NKMK" AJning ESG-reytingi "3" darajasida yakuniy baholanishi konchilik tarmog'i kompaniyalari darajasiga mos keladi va sohaning atrof-muhitga ta'sir, energiya va suv resurslarining sezilarli darajada iste'moli hamda issiqxona gazlari chiqindilari va sanoat chiqindilarining hosil bo'lishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqadi. "NKMK" AJ O'zbekiston tog'-kon sanoatida ESG-reytingini olgan birinchi kompaniya bo'ldi.

"Kompaniya faoliyatini barqaror rivoj-

lanish tamoyillari asosida olib borish biz uchun biznes maqsadlarimizga erishish, investorlar ishonchini oshirish va uzoq muddatli istiqbolga ishonchli rivojlanishning asosiy shartidir. ESG tamoyillarini joriy etish "NKMK" AJga amalga oshirilayotgan keng ko'lami transformatsiya-ning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda 2025-yil – "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb e'lon qilinishi "O'zbekiston – 2030" milliy strategiyasiga muvofiq kompaniyaning barqaror rivojlanish sohasidagi strategik maqsadlarini amalga oshirishda mas'uliyatli va tizimli yondashuvga bo'lgan intilishlarimizni yanada kuchaytiradi", – deya ta'kidladi bosh direktorning transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Yevgeniy Antonov.

"NKMK" AJga ko'rsatilgan darajadagi ESG-reytingi berilishi barqaror rivojlanish tamoyillarini tatbiq etish bo'yicha sa'y-harakatlarimizni tasdiqlash bilan bir qatorda, jahonning ilg'or tajribalariga muvofiq ekologik, ijtimoiy va korporativ jihatlarni boshqarishni yanada takomillashtirish uchun yo'nalishlarni belgilaydi", – deb sharhladi "NKMK" AJ Transformatsiya boshqarmasi Barqaror rivojlanish va atrof-muhit bo'limi boshlig'i Boris Samoylenko.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

■ Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligiga

“... anbiyog‘a ilmiq inson erur voris”



Hamma davrlar yoki ma'lum vaqtlarda tilimizda ko'p ishlatiladigan so'zlar bo'ladi. Vatan, ona, til, ishq, ilm, bilim, hunar kabilar barcha davr hammaga tushunarli so'zlardir. Vatan ravnaqi, millat kelajagi ilmga bog'liq. Ilmning ahamiyati, zaruriyati millat ziyolilarining doimiy e'tiboridagi tushunchalardan. Xalq og'zaki ijodi asarlari, ayniqsa, maqol, ertaklarni eslab ko'raylik. Maqollardagi “Baxt belgisi – bilim”, “Bilagi zo'r birni yiqar, Bilimi zo'r – mingni”, “Ilm – aql bulog'i”, “Ilm baxt keltirar, Bilim taxt keltirar”, “Ilm – tubsiz quduq”, “Ilm olish – nina bilan quduq qazish”, “Ilmli odam – ilikli suyak”, “Ilmsiz bir yashar, Ilmli ming yashar” va hokazo. Xalqimiz orasida eng mashhuri “Ilm igna bilan quduq qazishdir”, “Ilm igna bilan quduq qazishdek mashaqqatli”.

vuf, qiroat ilmi va boshqalar. Navoiyning ilm haqidagi fikrlarini asarlari asosida ko'rib chiqsak. Dastlab she'riyatida qanday mulohazalar mavjudligini aniqlab olsak. Shoir she'riyatida “Ishq ilmi”, “zohir ulum”, “qiroat ilmi”, “fiqh ilmi” degan jumlar uchraydi. Navoiy boshqa asarlarida bo'lgani kabi din ilmi, ayniqsa, fiqh ilmi alohida e'tibor beradi. “Navodir ush-shabob”da imda bahs bo'lishi, ilm haqidagi suhbatlarda Ollah rahmati nozil bo'lishini aytdi:

*Chu ushshoq ichra dermen darsi ishqin mehri tong emas,
Ki, derlar: ilm bahs aylar zamon rahmat bo'lar nozil.*

Sayyid Hasan Ardasheraga bag'ishlangan tarkibbanda “Bahri urfon duri Sayyid Hasan” degan jumla, bir qit'asida qozining fiqh ilmini bilishi kerakligi: “Kerakkim fiqh ilmin bilsa qoziy” deya ta'kidlanadi. “Badoye' ul-vasat”da yuqoridagi fikrimizga dalil bo'luvchi misra keltiriladi. “Ulumdin ashraf din ilmudur...” deb boshlanuvchi qit'asida shunday misralar bor:

*Ilmi din kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmas.
Lekin ul ilm dog'i naf etmas,
Bilibon bo'lmasa amal qilmoq.*

Ilm- dunyo mushkillari, hayot muammolari ni hal qiluvchi vosita. Uning foydasi ko'p. Lekin har qanday ilmning nafi unga amal qilgan bo'ladi. Ilm olib, ilmli bo'la turib, unga amal

qilmasa, eng foydasiz ishdur. Bu fikrni Navoiyning yana boshqa asarlarida ham uchratamiz. Navoiyning yana bir muhim fikri, bir necha asarlarida qayd etilgan ilmi insonning payg'ambarlarga voris ekanligi, olimlarga kim hurmat ko'rsatsa, go'yo payg'ambarlarga ta'zim qilgandek ekanligini ta'kidlashdir. Gap din ilmi olimlari, haqiqiy ilm ahli haqida ekanligini nazarda tutish kerak. Shoir shunday yozadi:

*Ulug'lardin nasib istar esang, kasbi kamol etgil,
Nedinkim, anbiyog'a ilmiq inson erur voris.*

Ilm haqidagi fikrlar hadislarida ancha chuqur bayon qilingan. “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, “Xitoyga borib bo'lsa ham ilm ol” kabilarni yaxshi bilamiz. Shu sabab ham Navoiyning hadislariga javoban yoki ularning mazmuniga mos ruhda yozilgan “Nazm ul-javohir”, “Arba'in” asarlarida bunday fikrlarni uchratamiz.

“Nazm ul-javohir” Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asaridagi hikmatlarga javoban yozilgan ruboiylardan iborat asar. Navoiy Hazrat Alining ilm bilan bog'liq “Ilmning darajasi- sifatidadir”, “Ilmning zavoli –maqanishdadir”, “Ilmning kamoli -muloyimlikdadir”, “Ilmli shohga zavol yo'qdir”, “Ilm majlisi - jannat bog'iga o'xshaydi” kabi hikmatlari mazmuniga mos ruboiylar yozadi. 33- ruboiyda hammamizga tanish jumlani tilga oladi:

*Ilm o'ldi sharaf din aro har oying'a,
Bormoq bo'lar o'rgangali ani Ching'a...*

Boshqa ruboiylarda “Haq berdi ilm sarmoyasi”, “Ilm ortuqkim,ikki jahon shohlig'i”, “Hilm-dadur ilm kamoli”, “Fiqh ilmlar ichra sharafli, faqihlar ummatning sarvari”, boshqa bir o'ringda “Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de oni, Majlisidaki ilm bo'lsa uchmaq de oni” deydi:

*Kimki olim esa, nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar, bihishti mutlaq de oni,
Har kimsaki, yo'q ilm anga ahmaq de oni,
Majlisidaki ilm bo'lsa uchmaq de oni.*

«Arba'in»- mashhur hadis vakillarining qirq hadisiga javoban yozilgan qit'alardir. Bu hadislar ham mavzu jihatdan rang-barang. Ilm haqida shunday hadis mavjud: “Ilmda baxillik yo'q”. Shu hadis mazmuniga mos tarzda Navoiy shunday yozadi:

*Ey xiradmand olimeki, sanga
Ilmdin ro'ziy ayladi sone'.
Kishi o'rgansa qilmag'il mahrum,
Yoki naf? olsa bo'lmag'il mone'.*

Navoiy fikricha, haqiqiy olim o'z ilmini hech kimdan ayamaydi. Kim ilm talabgori bo'lsa, unga yordam beradi, bilimni mone' tutmaydi. Umuman, Navoiyning ilm, fanning turli sohalar haqidagi mulohazalari boshqa asarlarida ham atrofiyicha bayon qilingan. Ularni o'qish, anglash ilm fazilatlarini va ahamiyatini yana bir bor chuqur his qilish imkonini beradi.

Tohir XO'JAYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

В наших сердцах навсегда

*Тянется к солнцу лоза винограда,
И солнышко дарит ей свет.
Новая жизнь – для сердца отрада,
В Герате родился поэт...*

*Прошло много лет с той чудесной поры,
Но память о нём жива.
Великий философ, поэт Навои,
Он в наших сердцах навсегда.*

*Чтут молодёжь вековые традиции,
Им вторит родная страна.
В науку и спорт летят инвестиции,
Отдача от них велика.*

*Узбекистан наш – праведник мира,
Народ восхваляет тебя.
Пусть тянется к солнцу лоза винограда,
Ведь наше богатство – земля!*

Наталья ФИЛИПОВА,
пенсионер.

■ 1483-yil 14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun

Zahiriddin Muhammad Bobur deganda ko'z oldimizda o'zbek adabiyotining ulkan namoyandasi gavdalanadi. Zero, mashhur muarrix Mirzo Haydar ta'бири bilan aytganda: “Turkiy she'rni Mir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”. U adabiyotni hayotga, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirdi. Atoiy, Lutfiy she'rlaridagi xalqchilik Bobur asarlarida yangicha shaklda tug'ilgan. Shoir merosining hayratlanarli darajada hayotiyiligi, ko'ngilga yaqinligi, tuyg'ularining tabiiy va samimiyligi shundan.

Xassos qalb sohibi

Kishilik tarixida Bobur kabi iqtidor va fazilatlar beqiyos insonlar juda kam uchraydi. U buyuk podshoh, Boburiylar sulolasining asoschisi, sarkarda, ko'pqirrali faoliyat va ijod sohibi, shu bilan bir qatorda donishmand tarixchi, zakovatli olimdir. Ulug' salafilariga ergashib yozgan she'rlarini hisobga olmaganda, u asosan ko'rgan-bilgan, qalbidan o'tkazgan, o'zini to'liqlantirgan narsalar, kechinmalar haqida yozadi. U adabiyot, san'at, tarix va ilm-fanning turli sohalarida juda qimmatli asarlar yaratgan. Shularidan biri bu “Boburnoma”dir. “Boburnoma” tarixiy-memuar asari shoiriga olamshumul shuhrat keltirgan. Unda XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Movarounnahr, Xuroson va Hindiston-da kechgan voqealar, Temuriylar saltanatining inqirozi, Shayboniylarning hokimiyat tepasiga kelishi sodda uslub, samimiyat ruhi o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Qomusiy xarakterdagi bu asarda Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston mamlakatlari tarixi, madaniyati, tabiati, hayvonot va o'simlik dunyosi, shahar va qishloqlari, bu yerlarda yashaydigan xalqlarning turmush tarzi, urf-odat, an'analar, diniy e'tiqod va marosimlari, turli ijtimoiy tabaqalar, harbiy san'at va jang qurollari, o'zining urish-yurishlari, turli fanlarga oid ko'pdan-ko'p ma'lumotlar o'rin olgan. Bobur o'z asarini “Boburnoma” deb emas, balki “Vaqoye” deb atagan. Turli adabiyotlarda u “Voqeoti Boburiy”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya” kabi nomlar bilan ham uchraydi. “Boburnoma”ning o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari dunyoning turli xil kutubxonalarida saqlanadi. Jahon adabiyotida “Boburnoma” asosida o'nlab badiiy asarlar yaratilgan. Flora Anna Stiling “Boburxon”(Parij, 1940-yil), Fernard Grenardning “Bobur” (Parij, 1930-yil), Harold Lembling “Bobur-yo'lbars”(Nyu-York, 1961-yil) romanlari shular jumlasidandir. Hindistonlik Muni La'l Boburiylar haqida 6ta roman yozgan.

Bundan tashqari, Bobur o'g'illari Humoyun va Komron Mirzolariga atab, shariat aqidalariga bag'ishlangan “Mubayyin” asarini, aruz ilmiga oid “Mufassal” kitobini yaratdi. Xoja Axror Valiyning “Voldiyya” risolasini she'riy tarjima qildi. Arab alifbosini isloh qilib, yozuvni soddalashtirish va osonlashtirish, uni turkiy til va talaffuz mezonlariga moslashtirish maqsadida “Xatti Boburiy”ni ixtiro etgan. Uning musiqqa san'ati va harbiy ishlariga doir risolalari ham bo'lib, ular hozirgacha topilgan emas. Avlodlarni o'zbekning ikki zabardast shoiri – Navoiy va Bobur o'rtasidagi munosabatlar qiziqtiradi. Afsuski, bir-biriga intilgan bu buyuk insonlarning



bir-birlariga yo'llagan maktablari bizgacha yetib kelmagan. Shuhrati nafaqat Xuroson va Movarounnahr, balki butun Sharqqa yoyilgan Navoiy asarlaridan Boburning bahramand bo'lishi va maktub orqali bo'lsa-da she'riyat mulkinining sultoni bilan aloqa bog'lashga intilishi tabiiy edi. Bobur she'rlarini ichdan nurlantirib turgan ega muhim xususiyat bu – ularning beqiyos darajadagi samimiyligi. Bobur she'rlarida ko'proq o'zini mazammam qiladi, o'zini yozg'iradi, hech narsani yashirmay ko'nglida borini to'kadi. Shuning uchun ham uning bunday iqrirlari kishidagi xayrixohlik uyg'otadi, shoirni qoralash xayoligizga ham kelmaydi:

*Besabrmen-u besar-u somondurmen,
Bir g'amzadadurmenu parishondurmen.
Ne dinning ishin qildim-u, ne dunyoning,
Yo Rab, netay o'z ishimga hayrondurmen.*

Bobur bag'rikeng, mehri daryo inson bo'lgan, o'ziga yomonlik qilganlarning ham gunohidan o'tib, qo'lidan kelganicha ularga yaxshilik ko'rsatgan.

*Bori elga yaxshilig' qilg'iki, mundin yaxshi yo'q-
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'!*

Bobur she'rlarining hayotiyiligi shoir ularni hayot qozonining ichida turib ijod qilganligidadir. U bir umr odamlar orasida yashadi, qizg'in faoliyat bilan band bo'ldi. Hayotning butun achchiq-chuchugini totgan, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan Boburning ko'pgina baytlari hikmatday jaranglaydi. Bu baytlar uning hayotiy kuza-tishlari va xulosalari asosida kelib chiqadi:

*Sarfarozi etsa dahr shod o'lma,
K-oxir ul-amr poymol qilur.*

Yana:
*Har nimag'a g'am yema-g'am ko'pturur,
Aysh bila o'zni ovutmoq kerak.*

Yana bir baytda keltiriladi:
*Bu dahr ichra bistari rohat tilami qo'y,
Ul farsh chun bu ko'hna ravoqig'a arzimas.
Aysheki, o'tti-o'zga ani zikr aylama,
Har nimaiki yitti-so'roqig'a arzimas.*

Bobur nazdida har qanday inson o'z qilmishiga yarasha jazo topadi, yomon fazilatiga yarasha jafu yoki aksincha, yaxshi kimsa fazilatlariga yarasha mukofotlanadi:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.*

“Boburnoma”da 50 dan ortiq o'rinda turli munosabat bilan forsiy misra, bayt, fard, qit'a, ruboiy va tarixlar keltirilgan. Ular orasida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Sayfi Buxoriy, Shayxim Suhayliy, Vafoiy, Xasan Ya'qubbek, Boysung'ur, Kamoliddin Binoiy, Mullo Muhammad Tolib, Kichik Mirzo, G'aribiy, Muhammad Husayn, Xoja Kalon kabi shoirlar ijodidan keltirilgan namunalar bilan bir qatorda, turli vaziyatlar taqozosi bilan muallifning o'zi tomonidan badiha tarzida aytilgan ko'plab forsiy bayt, qit'a va ruboiylar ham berilgan.

Boburning yaratuvchanlik va obodonchilik ishlariga qo'shgan hissasini ham sanab o'tish joiz. Abdullhamid Lohuriyning “Podshohnoma” asarida keltirishicha, Kobuldagi Bog'i Shahrora, Bog'i Jilovxona, Bog'i Surat, Bog'i Mohitob, Bog'i Ohuxona, O'rtabog', Chorbog'i Kobul, Agradagi Bog'i Bihisht, Xilvatxona, Bog'i Zarafshon, Oromgoh, Sekridagi Bog'i Fotih, Dilpurdagi Bog'i Nazargoh, Nilufar, Gvalior bog'lari bevosita Boburning sa'y-harakatlari natijasida barpo etilgan.

Bobur eng mahoratli usta va hunarmandlarni saltanatiga chorlab, Movarounnahr me'morchilik va shahar-sozligi an'analariga asoslangan ajoyib ko'shsh va saroylar, masjid va madrasalar barpo ettirdi. Xuroson va Hindiston hududidagi mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotga erishishi Boburning obodlik va farovonlikka yo'naltirilgan faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Nilufar QURBONOVA,
Zarafshon shahar 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

■ Yangiliklar. Xabarlar

ZAMONAVIY LABORATORIYA

Navoiy mashinasozlik zavodining markaziy laboratoriyasi har xil metallarga doir noyob tahlillarni amalga oshiradigan bo'linma hisoblanadi. Ushbu laboratoriyada ayni paytda 50 nafarga yaqin malakali mutaxassislar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular quyumachilik sexida ishlatiladigan har bir metall tarkibini tekshirib, bir sutkada 60 ga yaqin namunalarni tahlil-sinovdan o'tkazishadi, natijada metallar tarkibidagi elementlar aniqlanib, yaroqliligiga xulosa beriladi.

Mazkur laboratoriya “O'ZDSt 3410-2019” standartida tahlil olib borish huquqini beruvchi “O'zbekiston akkreditatsiya markazi” DUKning sertifikatiga ega. Jamoaning Rustam Hamdamov, Safarali Norbekov, Alijon Nizomiddinov, Mansurjon Berdiyarov, Shoira Ashurova, Surayyo Po'latova singari mutaxassislar Texnik jihatdan tartibga solish agentligining O'zbekiston standartlar institutida malaka oshirishgan.

- Biz, zavodimizda ishlatiladigan metallarning mexanik xossalarni tekshiramiz. Bundan tashqari, shaxtalarda ishlatiladigan arqonlarni sinovdan o'tkazib, xulosa beramiz, - deydi

yetakchi muhandis S.Norbekov. – Laboratoriyamizdagi Germaniyada ishlab chiqarilgan metall tekshiruvchi uskuna kombinatda yagona hisoblanadi. Shveysariyadan keltirilgan “LFM 50” sinov mashinasi ham noyob. Hozir nafaqat kombinatimiz, balki shartnoma asosida “Qizilqumsement” va “Navoiyazot” AJlariga metallarni laboratoriya tekshiruvidan o'tkazish bo'yicha ham xizmat ko'rsataymiz.

Shuningdek, kombinat bo'linmalaridan bu yerga turli asbob-uskunalar ishdan chiqqan ehtiyot qismlari olib kelib, laboratoriya mutaxassislari tomonidan ularning kimyoviy tarkibi aniqlanayapti.

MILLIY LIBOS BARCHAGA YARASHADI

Markaziy kon boshqarmasida “Milliy libos barchaga yarashadi”, “Milliy trend chellenji” shiorlari ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, chellenjlar bo'lib o'tmoqda.

- Xalqimizning azaliy urf-odat va an'analarini targ'ib qilish va yoshlarimiz qalbiga chuqur singdirish g'oyat muhimdir. Shu maqsadda, kon boshqarmamizda targ'ibot tadbirlari boshlab yuborildi, - deydi Markaziy kon boshqarmasi yoshlar yetakchilari Kengashi raisi Sodat Boboyorova. – Biz hamkasblarimiz, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida o'zbekona kiyinish madaniyati, milliy liboslar va an'analariga

hurmat ruhini shakllantirishni ko'zlab, tushuntirish ishlari, suhbatlar olib boraymiz. Ayniqsa, bunda xotin-qizlarimiz o'zlarini namuna bo'lib, tadbirlarda faol ishtirok etishmoqda.

Kombinatning boshqa bo'linmalarida ham bunday targ'ibot tadbirlari davom etmoqda.

D.KARIMOVA.

BIOKS SEXI QUUVATI OSHIRILDI

So'nggi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida investitsion loyihalar ishlab chiqarishga izchil tadbir etilmoqda. “Kokpatas va Dovg'iztov oltin konlarida ma'dan qazib olish (3-navbati)” istiqbolli loyihalardan biridir.

Mazkur loyiha doirasida 3-gidrometallurgiya zavodida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlar korxonada tarixida yangi sahifa ochayapti. Loyihaning navbatdagi bosqichida Biok (Biox) sexida 9, 10-bioksidlash modullari ishga tushirildi. Natijada amaldagi 48 ta bioreaktor 12 ta bioreaktor qo'shildi. Bu, sexda sulfid konsentratlari ishlab chiqarish hajmini 25 foiz, tayyor mahsulot hajmini 12 foizga oshirishdan tashqari 25 ta yangi ish o'rni yaratish imkonini berdi.

Sulfid konsentratlarini qayta ishlashga mo'ljallangan Biok sexi o'zining noyobligi bilan ajralib turadi.

“Navoiy KMK” AJ Matbuot xizmati.

■ Oramizdagi odamlar

Alisher Qo'ldoshov qariyb yigirma yildirki, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Markaziy kon boshqarmasi "Muruntov" koni Gamma-aktivlashtirilgan tahlil markaziy laboratoriyasida faoliyat olib bormoqda. 2005-yilda Navoiy konchilik kollejni tugatgandan so'ng, ilk mehnat faoliyatini jihozlarni ta'mirlash bo'yicha navbatdagi elektr chilangarlikdan boshlagan mutaxassis kasbiy malakasini oshira borib, mas'uliyatli vazifalarda ham ishladi.



YARATISH ISHTIYOQI — ZAVQI

tomondan katta yo'qotishlarga olib keladi. Oltin konlaridan olingan namunalarni tahlil qilishda aniqlik darajasi o'ta yuqori bo'lishi shart.

Texnik nazorat guruhining ilimiy va izlanuvchan mutaxassislarini doimiy ravishda tahlil sifati va aniqligini nazorat qilib borishadi. Bunda Xurshid Mingbo'yev, Konstantin Yermakov, Azamat Niyo'zov, Akbar Jumanov, Nodira Hasanova, Gulyora Qodirova, Ulug'bek Jumayev, Oybek Xalilov, Amiriddin Qozoqov, Musojon Umarov kabi tajribali xodimlarning xizmatlari beqiyos. Bugun laboratoriyada nafaqat Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zarmitan, Marjonbuloq kabi geografik hududlardagi konlardan olingan namunalar, balki O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga qarashli geologik-qidiruv ekspeditsiyalari uchun ham namunalar tahlil qilib berilayapti.

Ma'lumki, har yili "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJda ixtirochi va ratsionalizator yoshlar va mutaxassislarni rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi ixtirochi", "Eng yaxshi yosh ratsionaliza-



tor", "Eng yaxshi innovatsion g'oya va ratsionalizatorlik taklifi" ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi. Tanlovda muntazam ishtirok etib kelayotgan Alisher Hikmatovichning geologiya yo'nalishidagi ratsionalizatorlik takliflari keyingi uch yilda to'liq ishlab chiqarishga joriy etildi.

— 2023-yilda "Konteyner-kyuvelning dizayniga o'zgartirishlar kiritish orqali geologik konteyner-kyuvelning xiz-

mat qilish muddatini va QR kodli yorliqlar ko'rinishidagi axborot belgilarini uzaytirish" mavzusidagi ratsionalizatorlik taklifim bilan ko'rik-tanlovda ishtirok etdim. Izlanishlarim besamir ketmadi. Yetuk mutaxassislar o'z g'oyamni tushuntirib, bu bilan geologik kyuvelarning muhim ma'lumotlarini yo'qotishning oldi olinishini va geologik namunalarini qayta ishlash uchun gammafaollashtirish tahlilini o'tkazishda QR kod ko'rinishidagi ma'lumot belgisi yorlig'i bilan birga geologik kyuvelning xizmat qilish muddatini oshirishni isbotlab berdim. Mening bu taklifim 1-darajaga munosib deb baholandi. Hozir ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ishchi-xodimlar mehnatini osonlashtirish uchun innovatsion g'oyalarga asoslangan yangi texnologiyalar va ilmiy ishlanmalar ustida izlanmoqdaman. Bu esa tajriba bilan birga ilmni ham talab qiladi, — deydi Alisher.

Tanlagan sohasida yetuk mutaxassis Alisher Qo'ldoshov ko'ngliga tugib qo'ygan maqsad va rejalarini amalga oshayotganidan mamnunligini ta'kidladi: "O'ta-onam oddiy kasbda ishlab, biz, uch nafar farzandlarini halol rizq-nasiba bilan boqib, oliy ma'lumotli qildilar. Yaxshi o'qishimiz va muntazam sport bilan shug'ullanishimiz uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratganliklari bois men va akam sportning "Fudokan" karate-do yo'nalishida bir necha bor Osiyo chempioni bo'ldik. Singlim shifokor bo'lib, el salomatligini muhofaza qilishdek sharaflari ishini bajarib kelmoqda. Yurtimiz rivojiga baholiquadrat hissa qo'shayotganidan xursandman. Bu tuyg'u yaqinlarim qabida ham kechayotganiga ishonchim komil".

Nafosat ZIYOYEVA.

■ Sarhisob

YUTUQLAR E'TIROF ETILDI, VAZIFALAR BELGILANDI

Markaziy kon boshqarmasida 2024-yil yakuni hamda 2025-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalarning ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Tahliliy-tanqidiy ruhda o'tgan tadbirda kon boshqarmasi direktori E.Xalikulovning hisoboti tinglandi.



— Markaziy kon boshqarmasi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining eng yirik bo'linmasi hisoblanadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining asosiy qismi ushbu bo'linma hissasiga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan investitsion loyihalar natijasida korxonamiz quvvati oshdi. Bu, oson bo'lgani yo'q. Birdamligimiz, ishga mas'uliyat bilan yondashganimiz o'tgan yilda ham ulkan yutuqlarni hissasiga to'g'ri keldi. Boshqarmasi direktori E.Xalikulov. — Jumladan, ko'pming kishilik jamoamizning fidokorona mehnati bilan 125,7 million kubometr tog' jinslarini qazib olish, 81,5 million tonna ma'danni qayta ishlashga erishdik. Investitsiya dasturi doirasida 591,29 million AQSh dollarlik mablag'lar o'zlashtirildi, mahalliy lashtirish dasturi bo'yicha esa 58 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

O'tgan yili amalga oshirilgan ishlar, yutuqlar, muhim voqealar haqida so'z ketganda, Markaziy kon boshqarmasi tashkil topganining 60 yilligi, 2-gidrometallurgiya zavodi va Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmatining 55 yillik yubiley tantanalari jamoaga ko'tarinkilik, kelgusi marralarga ishonch bag'ishlaganini e'tirof etib o'tish zarur.

Ahli jamoaning turli kasb egalari, fidokorona mehnat qilayotgan insonlari har yili davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. 2024-yilda ham

Prezidentimiz Farmonga muvofiq 2-gidrometallurgiya zavodi ishchisi Abduvali Qayumov "Mehnat shuhrati" ordeni, Avtomobil transporti boshqarmasining og'ir yuk ko'taruvchi karyer avtoag'dargichi haydovchisi Zokir Norov "Shuhrat" medali bilan taqdirlandilar. Hisobot yilida 25 nafar ishchi-xodim "NKMK faxriysi" unvoni, 73 nafari turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoniga sazovor bo'lgan jamoaning mashaqqatli va fidokorona mehnati har doim e'tiborda ekanidan nishonadir. Bunday rag'batlantirishlar jamoani yangi marralarga ruhlantirishi, shubhasiz!

Kon boshqarmasida muhim yo'nalishlarda barcha rejalar ortig'i bilan bajarildi. Ammo qator bo'linmalar, ularning rahbarlari tomonidan mas'uliyatsizlik, kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Shu bois, kengaytirilgan majlisda bunday hollar tahliliy-tanqidiy ruhda muhokama etilib, rahbar-xodimlar mas'uliyatini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilandi. Zero, ishlab chiqarishning barcha uchastkalarida qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir jamoa va xodim uchun bosh qoida bo'lishi zarur bo'lgan.

Yig'ilishda 2025 yilda va keyingi davrlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor va aniq vazifalar belgilab olindi.

N.KENJAYEVA.

■ NDKTU xabarlar

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA HIMOYALARI

ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilmoqda

Universitetning qishki qabul magistratura bosqichi bitiruvchilarining dissertatsiya ishi himoyalari malakali mutaxassislar jalb qilingan holda ishlab chiqarish obyektlarida, yetakchi tashkilotlarda tashkil etilmoqda.

Ilk himoyalar Navoiy mashinasozlik zavodida bo'lib o'tdi. Magistrlik dissertatsiya himoyalari Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Hududiy elektr tarmoqlari" Navoiy filiali kabi korxonalarda ham davom etayapti. 2024/2025-o'quv yilida universitetni 10 ta mutaxassislik bo'yicha 23 nafar magistr bitirmoqda.

"MAHMUDXO'JA BEHBUDIY SABOQLARI"

2025-yil 3-yanvarda davlatimiz rahbarining "Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori e'lon qilinib, unda ulug' alloma hayoti va faoliyatini chuqur tadqiq qiliish, ilmiy va badiiy asarlarini keng ommalashtirish vazifalari belgilandi.

Shundan kelib chiqib, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetda "Mahmudxo'ja Behbudiy saboqlari" mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi. Mazkur ma'rifiy tadbir Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atqoli adib va jamoat arbobining serqirra faoliyati bilan yoshlarni chuqur tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Darhaqiqat, XX asr Tukiston tarixida o'chmas iz qoldirgan, millat hurligi yo'lida mardonavor kurashgan bu ulug' allomaning hayoti, sermahsul ijod yo'li avlodlar uchun ibrat maktabidir.

NDKTU Axborot xizmati.

■ Mehnat jamoalarida



KON SHUHRATI YO'LIDA

Yaqinda "Muruntov" koni Davriy uzluksiz texnologiyalari konchilik sexi boshlig'i Laziz Jalolov hamrohligida konda olib borilayotgan ishlar bilan tanishdik.



Konda ish qizg'in, tunu kun burg'ilash, qazish va tashish ishlari olib borilmoqda. Oltin zaxirasi bo'y konni yaqindan borib ko'rishning zavqi boshqacha. Har bir kishiga beriladigan maxsus ish kiyimlarida odam beixtiyor o'zini konchiga aylangandek his qiladi. Kon massalarini qazib olishda HITACHI, Komatsu, CAT kabi yuqori unumdorli ekskavatorlar, tashishda esa CAT, Komatsu hamda BelAZ avtoag'dargichlaridan foydalanilmoqda. Ekskavator, avtoag'dargich va burg'ilash uskunalar AQSh, Yaponiya, Shvetsiya, Germaniya davlatlaridan keltirilgan.

Ellik yetti yildirki, "Muruntov" konidan tarkibida qimmatbaho metall bo'lgan ma'dan qazib chiqarilmoqda. Oltin qazib olish bo'yicha jahonda eng yirik konlardan biri bo'lgan mazkur kon so'nggi

yillarda Kanadada joylashgan "KITKO" xalqaro tahlil markazi e'lon qilgan yetakchi o'nta kon ro'yxatidan birinchi, ikkinchi pog'onani egallab kelmoqda. AQShning Integro Group kompaniyasi tomonidan konning yangi geologik-matematik modeli yaratildi. Mazkur model asosida aniqlangan oltin zaxiralari 2130-yilgacha ruda qazib olish imkoniyati mavjudligini aniqlab bergan.

So'nggi yillarda "Muruntov" konida istiqbolli loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida ma'dan qazib olish hajmi oshib bormoqda. 2013-yilda konda 44 million 135 ming kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 2,8 baravardan ko'proqqa oshdi. Joriy yilda konda 137 million 900 ming kubometr tog' jinslari qazib olish rejalashtirilgan.

"Seximiz jamoasining asosiy vazifasi konning quyi nuqtalaridan tog' jinslarini konveyer liniyalari orqali tashqi uyum hosil qilish maydoniga tashishdan iborat. Bu avtotransportlarga bo'lgan ehtiyojning kamayishi va ishlab chiqarish unumdorligining oshishiga olib keladi. Seximizda 4 ta maydalab qayta yuklash punktlari, 8 kilometrqa yaqin konveyer liniyasi va 2 ta uyum hosil qilish uskunalar bor. Konveyer liniyalari soatiga 2000 kubometr tog' jinslarini tashiydi. Ishchi-xodimlarimiz bir oila bo'lib hamjihatlikda faoliyat olib bormoqda", — deydi Davriy uzluksiz texnologiyalari konchilik sexi boshlig'i L.Jalolov. Sex konchilari safida xotin-qizlar ham bor. Ulardan biri 3-sonli kon-transport uchashtkasining boshqaruv puli operatori Nargiza opa Qurbonovadir.

Nargiza opa Navbahor tumanida dunyoga kelgan. Otasi Zarafshon shahrida ishlagani sababli bolaligi shu yerda o'tgan. U Navoiy akademik litseyini tugatgandan so'ng o'sha paytda Markaziy kon boshqarmasi tizimida bo'lgan Ujoy kommunal boshqarmasiga qarashli maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi bo'lib ish boshlagan. 2006-yilda "Muruntov" shaxtasiga ishga kirgan Nargiza Qurbonova hozir faoliyatini "Muruntov" konining Davriy uzluksiz texnologiyalari konchilik sexida davom ettirmoqda.

"Konveyer majmualarida ishlash qiyin, lekin men bunga ko'nikib ketganman. Ular maxsus boshqaruv markazidan avtomatlashtirilgan holda kompyuterda nazorat qilinadi hamda iqtisodiy samaradorligi jihatdan avtotransportda tog' jinslarini tashigandan ko'ra ish unumdorligini bir necha bor oshiradi. Ayni vaqtda mazkur texnologiya bir sutkada kon ostidan chiqariladigan 24 ming kubometr tog' jinslarini maxsus belgilangan joylarga yetkazib bermoqda. Vazifam — uzunligi qariyb 5 kilometrni tashkil etadigan shu maxsus qurilmaning to'xtovsiz ishlashini nazorat qilish.



Xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik, favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida doim mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilamiz. Ishimiz insondan diqqat-e'tibor va mas'uliyatni talab etadi", — deydi Nargiza Qurbonova. Opaning suhbatimiz so'ngida "Insonning hayotda o'z o'rnini topishi oson kechmaydi. Buning uchun qat'iyat, intilish, qiyinchiliklardan cho'chimaslik kerak", degan so'zlariga qo'shilmay bo'lmaydi.

Aziza IRISOVA.

■ Ijod zavqi

Sitora Rahimova 1991-yilda Zarafshon shahrida tug'ilgan. 2016-yil O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakultetini tugatgan. Ayni paytda 2-gidrometallurgiya zavodi ishlab chiqarish texnik bo'limi muhandisi bo'lib ishlaydi.

S.Rahimova ishdan bo'sh paytlari ijod bilan shug'ullanadi, she'r va hikoyalar yozadi. Uning "Pokizam mening" deb nomlangan ilk kitobi 2024 yilda nashr etilgan.



Xotira

Saharlarda bobom bog'larin,
Tomosha-chun uyg'onganimda,
Terardilar uzumlar shirin,
Ohistahol odim-odimda.

Kakliklarning uk-uk xonishi,
Parrandaning chug'urlashlari,
Salqin tonglar hanuz eslatar,
Bobojonim ulkan bog'larin.

O'tdi xazon, o'tdi ko'p yillar,
Oqib ketdi umr yo'larin,
Hanuz har tong qushlar ovozi,
Eslatadi bobom bog'larin.

Zilol suvdek g'uborsiz, toza,
Chorpayada tonglar, cho'g'irin,
Shabbadalar qo'nganda reza,
Yodga solar bobom bog'larin.

Yuragimni ezar fusun xotira,
Ketganlarni eslatadi yoshira,
Bolaligim qaytsaydi bir zum,
Bobom-la o'tarmidi tarannum.

Bevafodir bu foni dunyo,
O'tib umr, keksaysak bir kun.
Nasib etsin bu kabi ro'yo,
Arziri xotira eslashga uyg'un.

Onaginam asragin

Alloh!

Hayot so'qmog'ida izg'irib,
Bora-bora bo'ldim ko'p sarson.
Yaratganga yolvorib har on,
Keltirolmam biror vaj-karson.
Yengolmam hech g'am-alamini,
Tutdim qadrton eski qalamni,
Yolg'izlikda qolmagan asror,
Samolardan so'rayman ming bor,
Volidam hech chekmasin oh,
Onaginam asragin Alloh!

Yashaymiz biz go'yoki mangu,
Quvonch ila to'qnashar qayg'u.
Farzandi-chun ayamay o'zni,
Yig'inamiz, yuguramiz, tinmaymiz,
Ulg'aytirgan ota-onani,
Tiriklikda qadrin bilmaymiz.
Ziyoratga vaqt topmay bir bor,
Birin yo'qotqanda so'raymiz takror.
Umrin uzoq qilgin evoh!
Onaginam asragin Alloh!

Omonatmiz dunyoga afsus,
Bir parcha matoyu, tuproqqa mahbus.
Odamzot hech bo'lolmas ustun,
Qilmishimiz libos, riyo-din husn.
Hech zamonda duo ko'plik qilmagan,
Ona duosini qadrin bilolgan.
Bu dunyoda ham bor mehr nishoni,
Ona uyi - muhabbatdan koshona.
Ona uyi - eng buyuk dargoh!
Onaginam asragin Alloh!

Qalbimzning bir parchasi,
Nuridiydam onajonim,
Parvardigor bir tuhfasini,
Jannatqadam onajonim.
Uzolmasmiz hech qarzin,
Farzandiga berar qalbin,
Omon bo'lsin Mashalloh!
Onaginam asragin Alloh!

■ Dolzarb mavzu

Dunyoning goh u, goh bu mintaqasida seysmik holatlar kuzatilib turibdi. Uning oqibatlari insoniyat hayoti, iqtisodiyotga juda katta zarar etkazmoqda. Ushbu holatlar, albatta, bunday ofatlardan ogoh bo'lib, respublikamizda ham uning oldini olish va bu borada tegishli choralarini ko'rishni taqozo etadi. Shu boisdan, bu masala davlatimiz rahbariyatining doimiy e'tiborida bo'lib, qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan.


HAMISHA OGOH BO'LAYLIK!

Yurtimizda yaqin yillargacha seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi munosabatlar 20 ga yaqin qonunosti hujjatlari bilan tarqoq holda tartibga solingan bo'lib, mazkur yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha tadbirlar qonunchilikda nazarda tutilmagan edi. Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 13-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi Qonun imzolangan muhim hujjat bo'ldi. Jumladan, seysmik xavfsizlik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan, 5 ta bob va 26 ta moddadan iborat mazkur hujjat bugun O'zbekiston aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga xizmat qilmoqda.

Zilzilalar katta talafotlarga olib keladigan eng xavfli tabiiat hodisalaridan biridir. Ularning oqibatlari tabiiy va texnogen xususiyatga ega ikkilamchi xavfni keltirib chiqaradigan hamda katta hududlarni qamrab oladigan seysmik to'lqin hisoblanadi.

Afsuski, dunyo tajribasida ham hozircha zilzila bo'lishini oldindan aytib berish, oldini olish yoki vujudga kelish ehtimolini kamaytirishning imkoniyati yo'q. Lekin shunga qaramasdan, seysmik ta'sirlardan hosil bo'ladigan zararlarni kamaytirish mumkin bo'lgan omillar mavjudki, ayni paytda ulardan oqilona foydalanib kelinmoqda. Mamlakatimiz seysmik faol hududda joylashgan. O'zbekiston hududining qariyb 52 foizida 7 ball va undan yuqori kuchdagi zilzila sodir bo'lish ehtimoli mavjud. Bu, barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda asosiy va muhim muammolardan biri sanaladi. Zilzila o'pirlilishlar, qor ko'chiklari ko'rinishidagi geologik jarayonlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, seysmik xavfsizlik milliy xavfsizlikning tarkibiy qismidir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham seysmik xatarlarning oldini olish bo'yicha mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda keng



qamrovli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-apreldagi "Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfini monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori talablarini izchil ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi huzuridagi Seysmoprognostik monitoring respublika markazi bilan hamkorlikda hududning va sahro bag'rida joylashgan ishlab chiqarish tarmoqlarining zilzilaga bardoshligini monitoring va nazorat qilish, kuzatuvlar o'tkazish, yo'qotishlar (moddiy, iqtisodiy va boshqalar) xavfining oldini olish, qattiq foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog'liq yer qobig'ining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini hamda texnogen zilzilalarni monitoring qilishning bosqichma-bosqich tizimi yo'lga qo'yil-

gani o'zining ijobiy natijasini bermog'da. Hozirda Qizilqum sahosida xavf va zilzilalar ehtimolini bashorat qilish imkonini beruvchi 5 ta raqamlashgan stansiya mavjud bo'lib, uning 4 tasi 2023-yilning sentabr oyida ishga tushirilgan. Kombinatta qattiq foydali qazilma konlaridan foydalanishning seysmogeodinamik jarayonlarga ta'sirini o'r-

"KIBER JINOYAT QURBONI BO'LIB QOLMANG!"

mavzusida targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda

Bugungi kunda har bir inson axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanmoqda. Afsuski, virtual olamda aldanib qolayotganlar ham ko'paymoqda. Bu, aholining kiberxavfsizlikka oid ko'nikmasini shakllantirish lozimligidan darak beradi. Markaziy kon boshqarmasida Zarafshon shahar Ichki ishlar bo'limi mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda shu maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda.

Muloqotlarda Zarafshon shahar Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari Nurali Haydarov ijtimoiy tarmoqlardagi internet do'konlaridan foydalanishda belgilangan tartib-qoidalarga amal qilmaslik oqibatida firibgarlarning tuzog'iga tushib qolish hech gap emasligi, plastik karta pinkodi va parolini, shuningdek, SMS xabarlar orqali yuboriladigan maxfiy kodlarni begona shaxslarga bermaslik kerakligini ta'kidadi. Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak, Zarafshon shahrida o'tgan 2024-yilda 348 ta holatda onlayn firibgarlik aniqlangan. Achinarlisi, birgina ko'ng'iroq tufayli ishonuvchanligi, e'tiborsizligi natijasida 63 ming AQSH dollari miqdoridagi pullaridan ayrilganlar ham bor.

Bugungi kunda kiber jinoyatchilikda muayyan shaxsning yoki obyektning geografik joylashgan nuqtasi to'g'risida xabar tarqatish, shaxsiy ma'lumotlar bazasini buzib kirish, firibgarlik yo'li bilan aniqlagan shaxsiy ma'lumotlarini aytib, o'zini bank yoki Click, Payme kabi to'lov tizimlaridagi xodim sifatida tanishtirib, tizimda xatolik yuz berganini yoki tizim yangilangani uchun unga raqamni qayta ulash lozimligini sabab qilib, shaxsiy karta raqam, login va parollarni so'rab olgandan so'ng plastik kartochkalaridan pul yechib olish kabi xunuk holatlar uchraydi. Shu boisdan har bir fuqaro o'z shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlashi bilan birga aloqaga chiqadigan turli aldov ko'ng'iroqlariga javob bermasligi lozim.

O'tkazilgan tadbirlarda barchani yana bir bor ogohlik va hushyorlikka chaqirish maqsadida kiberxavfsizlik mavzusidagi videorolik ham namoyish etildi.

Aziza HUSANOVA.

■ Медицина

ЧТО ТАКОЕ ПНЕВМОНИЯ?

Это воспаление легких, вызванное бактериями, вирусами или грибами. Может появиться как самостоятельное заболевание, но часто становится осложнением других болезней (грипп, коронавирус, СПИД и другие иммунодефициты, опухоли легких, бронхоэктазы и т.д.). В начале 2020 года, когда была пандемия по поводу коронавируса, почти все жители земного шара были охвачены этой инфекцией и из зараженных заболели пневмонией. Пневмонию разделяют на внебольничную и внутрибольничную.

ПРИЧИНЫ РАЗВИТИЯ ПНЕВМОНИИ

- попадание в легкие бактерий (пневмококков, стафилококков), микоплазм, грибов, вирусов через дыхание, реже - кровь, лимфу;
- снижение иммунитета (в нормальном состоянии иммунитет способен справиться с большинством возбудителей);
- осложнение на фоне инфекций дыхательных путей, болезней сердечно-сосудистой системы; злоупотребление алкоголем, перенесенные ранее операции (особенно на грудной клетке);
- воздействие химических элементов из окружающей среды;
- ожоги дыхательных путей.

ПРИЗНАКИ ПНЕВМОНИИ

- боль в боку, особенно при глубоком дыхании,
- одышка,
- сухой кашель или кашель с мокротой,
- повышенная утомляемость, вялость,
- головная боль,
- повышенная температура (вплоть до 39°-40°) или температура ниже нормальной (особенно у пожилых),
- тошнота, рвота.

Если не обратиться к специалисту при появлении первых признаков заболевания, то симптомы начнут усугубляться, а пневмония прогрессировать, поражая всё больший объем легких. Поэтому не стоит откладывать запись на прием к врачу, особенно если вы или ваш близкий находитесь в зоне риска: дети до 5 лет, взрослые старше 65 лет. Есть поговорка в области пульмонологии, что «пневмония друг пожилых людей». Это объясняется тем, что у детей до 5 лет, взрослых

старше 65 лет иммунитет ниже, чем в среднем возрасте.

Основным методом диагностики остается рентгенологическое обследование грудной клетки — оно поможет специалисту понять объем поражения, кроме того, без рентгенологического исследования врач не имеет право ставить диагноз пневмонии. Для подбора эффективной терапии важно определить и природу пневмонии: вызвано заболевание наличием бактерий, вирусов или грибов — с этим помогут результаты анализа крови, мочи и выделяемой с кашлем мокроты.

Для лечения пневмонии необходим максимально точный диагноз с указанием возбудителя заболевания. Если причиной заболевания стал вирус, то врач назначит противовирусную терапию, а если грибки — противогрибковую. В случае подтвержденной бактериологической природы пневмонии, пациенту будет прописана антибактериальная терапия с учетом большого выбора современных лекарственных препаратов, способных уничтожить возбудителя и остановить воспаление.

В случае назначения антибактериальных препаратов, т.е. антибиотиков, возможны два способа приема лекарства: в виде таблеток при легкой форме пневмонии (часто пациенту разрешено лечение в домашних условиях при безусловном регулярном контроле лечащего врача) и внутривенно, внутривенно в стационаре в случае тяжелого течения заболевания. Также будут назначены препараты для борьбы с симптомами и общего укрепления организма: отхаркивающие средства, витамины, обильное питье; дополнительно пациенту желательно соблюдать определенную диету для восстановления сил организма и поддержки иммунитета.

Пневмония считается хорошо изученным заболеванием и, несмотря на порой тяжелое течение (если это внутрибольничная форма, или длительная форма не обращаясь за помощью при внебольничной), в руках грамотных специалистов легко поддается лечению.

Профилактика заключается в практике здорового образа жизни, полноценном правильном питании, при желании и отсутствии противопоказаний — закаливания, т.е. поддержание крепкого иммунитета, в целом, может защитить вас от риска возникновения данного заболевания. Кроме того, важно внимательно относиться к собственному здоровью — пневмония часто выступает в роли серьезного осложнения на фоне обычной ОРВИ или гриппа, если вовремя не пролечить их.

Рахматилло АМОНУЛЛАЕВ,
врач-пульмонолог взрослой поликлиники МСО ГУ
«Фонд НГМК».

Qorin dam bo'lishi, ya'ni meteorizm yuqoriga ko'tarilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu, aslida ichakda gaz hosil bo'lishining kuchayishidir. Sog'lom odamlarda bunday buzilishning sababi ovqatlanish yoki qabziyatga moyillik bo'lishi mumkin. Organizmga kirgan oziq-ovqat ichaklarda ushlanib qoladi. Oqibatda bu hol ovqatning chirish jarayoni, gaz hosil bo'lishiga olib keladi. Ko'p miqdorda gaz hosil bo'lishi kasallikning rivojlanish belgisidir.

SOG'LIGINGIZGA E'TIBORLI BO'LING

Qorin dam bo'lishining sabablari quyidagilar: ovqatlanish qoidalari va ovqat hazm qilish jarayonlari, oshqozon-ichak trakti faoliyatining, ichak ajratish funksiyasining buzilishi, gaz hosil qiluvchi bakteriyalar, balandlikka ko'tarilganda ichakda bosimning oshishi. Bundan tashqari inson ruhiy holatining yomonlashuvi va yog'li taomlarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish ham gaz hosil bo'lishining omillari ekanligini e'tiborda saqlash hamda bunday hollarning oldini olish lozim.

Meteorizmdan uy sharoitida xalos bo'lish uchun qanday tabiiy mahsulotlardan foydalanish xususida tavsiyalarni aytib o'tmoqchiman. Zanjabil gaz tufayli qorinda paydo bo'lgan og'riqlarni kamaytiradigan eng foydali o'simlikdir. Biroq zanjabilni ortiqcha iste'mol qilish oshqozon og'rig'ini keltirib chiqarishini ham nazarda tutish lozim. Shu boisdan zanjabilidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish talab etiladi. Zanjabilni choy tayyorlaganda qanoq suvdan foydalanmaslik kerak. Chunki qaynatilgan suv zanjabilning ozuqaviy xususiyatini yo'q qiladi. Bir stakan qaynatilgan suvga bir chimdim zira solib o'n daqiqa damlab qo'ying. So'ngra uni suzib olib, ovqatlangandan keyin iste'mol qiling. Qorin dam bo'lganda dolchindan foydalanish ham juda yaxshi natija beradi. Dolchin og'riq qoldirish xususiyatiga ega bo'lib, qorinda gaz to'planishi oqibatida kelib chiqadigan noqulayliklardan xalos etadi. Oshqozon va ichaklarning bo'shashiga yordam beradi. Zanjabil bilan bo'lganidek dolchinli choy damlab ichish ham mumkin. Jismoniy mashqlar bilan doimiy shug'ullanish foydali bo'ladi. Ovqatni shoshilib yeyish, ovqatlanayotganida so'zlashish, saqich chaynash, ichimliklarni somoncha orqali ichish, chekish kabi odatlardan voz kechish darkor. Tarkibida shakar bo'lgan mahsulotlar, mevalar va ularning sharbatlarini oqsilli taomlar tanovulidan 2-3 soatdan keyin iste'mol qilish tavsiya etiladi.

Agarda qorin dam bo'lishi biror kasallik bilan bog'liq bo'lsa, uni davolash yoki alomatlarini bartaraf etish uchun shifokorga murojaat qilish zarur bo'ladi.

Inna YERMOLOVICH,
"NKMK" jamg'armasi" DM TSB
poliklinikasi sex vrachi.

